

**SHAROF RASHIDOV: BOSHQARUV FAOLIYATI
VA IJODIY MEROS**

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi magistri

Tel: 90 6953606 ORCID: 0009-0001-0653-4682

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'tgan asrda O'zbekiston SSR rahbarlaridan biri bo'lgan, o'z faoliyati daomida imkon qadar o'zbek xalqining manfaatlariga to'g'ri keladigan, ularning hayoti va yashash tarziga ijobiy o'zgarish olib kirishi mumkin bo'lgan ishlar qilishga harakat qilgan shaxs- Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston SSR, Sharof Rashidov, Toshkent, Samarqand, kompartiya, Oliy Sovet Prezidiumi, KPSS, metropoliten, "Chig'atoy" qabristoni, Yozuvchilar uyushmasi.*

Kirish: XX asr 2-yarmiga kelib, 2-Jahon urushi o'z yakuniga yetganidan so'ng SSSR tarkibidagi hududlarda ham asta-sekinlik bilan an'anaviy hayot tarziga qaytish boshlandi. Urushdagi ulkan yo'qotishlarning o'rni yillar davomida oddiy xalqning fidokorona mehnati va ko'rsatgan jonbozligi asosida qayta tiklana boshladi.

Davlatning qaytadan oyoqqa tura boshlashi boshlashi boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq edi. Jumladan, Nikita Xrushchov davriga kelib, shaxsga sig'inishga chek qo'yilishi ortidan butun boshli tizim o'zgara boshladi va bu jarayon O'zbekiston SSR ga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir ijobiy ko'rinishga ega bo'lib, Sharof Rashidov shaxsi bilan bog'liq edi.

Asosiy qism: Taniqli adib va yirik jamoat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrida Jizzax shahri atrofidagi Sovungarlik qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Rashid Halilov yetti pushti dehqon bo'lib suyagi mehnatda qotgan, umri qora mehnatda o'tganligiga qaramasdan oilasida bilim olishga intilish juda kuchli edi.

Sharof Rashidov 1924-yili 7 yoshida Jizzaxdagi yetti yillik Narimonov nomidagi 10- o'rta maktabning birinchi sinfiga qabul qilindi[1].

1935 yili texnikumni bitirib, ikki yil maktabda o'qituvchilik qilgan Sharof Rashidov 1937-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat universitetiga o'qishga kirdi. Talabalik yillarida ijod bilan shug'ullanib, she'rlar va kichik hikoyalar yozish bilan birgalikda, Samarqanddagi "Lenin yo'li" gazetasida muxbir, mas'ul kotib, muharrir muovini bo'lib ishlaydi. O'qishni bitirish arafasida gazeta muharriri lavozimida faoliyat yuritadi.

1939- yildan KPSS a'zosi[2]. Shuningdek, Sharof Rashidov 1941-yil noyabrdan 1942-yilga qadar Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. 1944-1947-yillarda O'zbekiston KP Samarqand viloyat komiteti kotibi lavozimida ishlagan.

Ko'rinib turibdiki, Sharof Rashidov o'z salohiyati, yetukligi, boy tajribasi va ishchanlik qobiliyati sababli faqatgina yozuvchilik faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, asta-sekin rahbar lavozimlarga saylanib, boshqaruv sohasida ham faol ish olib bora boshladi. Lekin uning boshqaruv sohasida tom ma'nodagi sezilarli faoliyati 1950-yildan keyingi davrga to'g'ri keladi.

Sharof Rashidov, yuqorida aytib o'tganimizdek, boshqaruv sohasida ham faol va samarali faoliyat olib borgan, lekin, dastavval, yozuvchi sifatida xalq e'tiborini qozondi. 1949—1950-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishladi. O'zining "Bo'rondan kuchli", "Qudratli to'lqin", "G'oliblar" romanlari bilan yozuvchilar qatoridan munosib o'rin oldi[3. – B. 235].

50-yillardan boshlab Sharof Rashidov faoliyatida yanada mas'uliyatli davr boshlandi. U 1950-yilda O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining Raisi etib saylandi.

Sharof Rashidovning Oliy Kengash raisi bo'lishi uning O'zbekiston SSR hayotidagi yetakchi shaxslardan biri sifatida markazda ham mavqeyi va qadrining ortishiga sabab bo'ldi. Chunki Sharof Rashidov Samarqandda, Yozuvchilar uyushmasida va boshqa turli rahbar lavozimlarda yurgan vaqtlarida tabiiy ravishda

markaz oldidagi o'zni 1950-yildan keyingi davrchalik katta bo'lmagan.

O'sha davrda sovet jamiyatining siyosiy tizimiga partiya, turli darajadagi Sovet organlari, kasaba uyushmalari, komsomol (yoshlar tashkilotlari) kirardi. Tizimning asosiy ustuni partiya hisoblangan. U o'zini rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi kuch hisoblab, Sovetlar va jamoat tashkilotlariga o'z irodasini amalda zo'rlik bilan o'tkazib kelardi[4. – B. 116-117].

Mana shunday yirik tashkilotga, ya'ni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimiga 1959-yil 15-martda Sharof Rashidov rahbar etib tayinlandi. Ya'ni Sharof Rashidov 1959-yildan boshlab O'zbekistondagi 1-raqamli shaxsga aylandi. U salkam chorak asr davomida respublikaga rahbarlik qildi.

Eng og'ir sharoitlarda ham Sh. Rashidov xalqiga farzandlik burchini ado etdi. Markazdan kelgan buyruqlarni yumshatishga, Markaziy hokimiyatdan yurt obodonligi, farovonligi uchun butun choralar bilan foydalanishga harakat etardi. O'zbekistonda 60—80-yillarda bunyod etilgan ko'plab sanoat korxonalari, yirik inshootlar Sh. Rashidov nomi bilan bog'liqdir. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon—Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishida uning xizmatlari katta. Paxtachilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga, ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan keyin Toshkentni qayta tiklash ishida Sharof Rashidovning hissasi juda ham ulkan.

Zilziladan avvalgi jarayonlarda ham Sharof Rashidov obodonchilik masalasiga juda ham jiddiy yondashgan edi. Fikrimizning misoli sifatida shuni keltirish mumkinki, 1962-yilda bo'lib o'tgan Toshkent ziyolilarining majlisida Sharof Rashidov Toshkent qurilish tashkilotlari shaharni obodonlashtirish rejalarini yetarlicha va o'z vaqtida bajara olmayotganligini e'tirof etgan[5. – P. 228]. Natijada qurilish ishlari yanada jadallashtirilgan va ish rejasiga jiddiy amal qilish masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Sharof Rashidovning bunyodkorlik ishlarida ko'rsatgan jonbozligi uning bu boradagi yangidan yangi tashabbuslarida ham o'z aksini topdi. Jumladan, Toshkent metropolitenining qurilishi ham aynan Sharof Rashidov tashabbusining mahsuli

hisoblanadi. Uzoq mehnatning samarasi sifatida 1977-yil noyabrda Toshkent metropolitenining 1-navbati, ya'ni 9 ta bekati ishga tushdi. Bu ham Sharof Rashidov nomining tarixdan mustahkam joy olishiga sabab bo'lgan voqealardan biri edi.

Yuqorida Sharof Rashidovning adabiyot sohasidagi faoliyati haqida ham fikr yuritgan edik. Endi uning ayrim asarlarining xususiyatini ham keltirib o'tamiz.

Sharof Rashidovning 1-yirik asari — „Chegarachi“ dostoni bo'lib, ushbu asar 1937-yilda nashr qilindi. Fashizmga qarshi kurash tuyg'ulari bilan sug'orilgan „Qaxrim“ she'rlar to'plami 1945-yilda chop etildi. Shuningdek, 1953-yilda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish mavzuida „G'oliblar“ qissasini yozdi. Urush yillarida xalq hayoti va og'ir mehnatiga bag'ishlab 1958-yil „Bo'rondan kuchli“, 1964-yil „Qudratli to'lqin“, 1972-yilda „G'oliblar“ romanlarini yaratdi.

Shuningdek, 1956-yilda hind xalq afsonasi asosida yozilgan „Kashmir qo'shig'i“ lirik qissasi Rashidov ijodida alohida o'rinni egallaydi.

O'zbek xalqining mana shunday zabardast va talabchan vakili bo'lgan Sharof Rashidov 1983-yil 31-oktabrda vafot etdi, uni Jizzaxdagi „Chig'atoy“ qabristoniga dafn etilgan.

Xulosa: Xulosa qiladigan bo'lsak, Sharof Rashidovning hayot yo'li o'zbek xalqining xalq sifatidagi qadrining ma'lum darajada yuksalish davri bo'ldi. Bunga, albatta, Sharof Rashidov shaxsining ko'rsatgan jonbozliklari ortidan erishildi. Chunki Sharof Rashidov amalga oshirgan ijobiy o'zgarishlarga sovet hukumati shunchaki ko'z yumib yubormasligi tabiiy hol edi. Ya'ni markaziy hukumat mustamlaka hududlardagi har bir ijobiy o'zgarish payti kelib o'zining zarariga ishlashi mumkinligini taxmin qilar, shu sababli ham islohotlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik uchun qattiq bosim o'tkazar edi. Shunday sharoitda o'z yurtida salmoqli ishlarni yo'lga qo'ygan Sharof Rashidov islohotlar samarasining yo'qqa chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun markaz bilan ham murosas qilishga majbur bo'lgan va buni muvaffaqiyatli bajargan shaxs edi. Qilingan ishlar nuqatayi nazaridan olib qaralsa, balki Sharof Rashidov davrida kelajakdagi mustaqillik uchun ilk poydevor qo'yilgandir!

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. Paul Stronski. Tashkent forging a soviet city (1930-1966). –Pittsburgh.: University of Pittsburgh press. – 370 p.
2. Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –T.: G'afur G'ulom, 2017. – 144 b.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). – T.: Sharq, 2010. – 255 b.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharof_Rashidov 13.12.2025
5. <https://oz.sputniknews.uz/20231003/sharof-rashidov-biografiya-39547973.html> 13.12.2025